

ZULFIYA ISROILOVA HAYOTI VA IJODI CHINAKAM O'RNAK MAKTABI

O'ktamova Dinara Zafar qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi 5-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7668702>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Isroilovanning hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumot berib o'tiladi. Shoira hayoti uning bolaligi va she'riyatga oshuftalik paytlari bayon qilinadi. Shoiramizning nafaqat hayot yo'li balki she'rlaridagi go'zal samimiy tuyg'ular va ular haqidagi tengdosh shoirlarning fikrlari ham keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, oshuftalik, tuyg'u, ehtirom, insoniylik.

Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentda hunarmand-degrez oilasida tug'ilgan. Otasi zaxmatkash temirchi edi, onasi Xadicha opa esa juda ko'p qo'shiq, ertak, afsona va dostonlarni bilar va bolalarga aytib berardi. 1928 yilda boshlanhich maktabni tugallab, Toshkent xotin-qizlar pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi. Ana shu yillardan boshlab, Zulfiyaning adabiyotga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Navoiy, Pushkin, Abdulla Qodiriy, G'ayratiy asarlarini, Uyg'un va Hamid Olimjon kabi yozuvchi-shoirlarning ijodini qiziqib kuzatdi. O'qish va o'rganish o'z navbatida uning qo'lga qalam olishga ilxomlantirdi. Shu tariqa badiiy iste'dodi namoyon bo'la boshladi. 1930 yildan boshlab "Ishchi", "Turkiston" gazetalari, "Bolalar", "Yangi yo'l" jurnallarida yosh shoira dastlabki she'rlari ko'rinadi. 1932 yilda o'n sakkiz yoshli shoira birinchi she'rlar to'plami- "Hayot varaqlari" bosilib chiqadi. Zulfiya doimo izlanishda, o'qishda o'z ijodini yanada serqirrali bo'lishi uchun sidqidildan harakat qildi.

1933 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil oladi. 1935-1938 yillarda esa A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida aspiranturada o'qiydi. 1938-1940 yillarda Respublika bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyotida muharrir bo'lib ishlaydi. Zulfiyaning ilk she'rlari o'zining hayotbaxsh ruhi bilan kitobxonlarni o'ziga jalb etdi. Shoira "Temiroy" (1934), "She'rlar" (1939), "Qizlar qo'shig'i" (1939) kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, cho'llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag'ishlaydi. Urush vaqtida "Uni Farhod derdilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) kabi to'plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan dalolat berdi. Bu to'plamdagi she'rlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g'alabaga ishonch, yorga sadoqat ruhida yaratilgani bilan xarakterlidir. Zulfiyaning "Mening Vatanim", "Qo'limda qurolu ustimda shinel", "Bizni kut" kabi umidbaxsh she'rlari urush davri o'zbek she'riyatining jangovor ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o'rin olgan. 50-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va hishayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi

("Lolaqizg'aldoq", 1975). Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg'" pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi.

Zulfiya Isroilovanning o'n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg'iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira N.Nekrasov, M.Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoiraning ibratli hayot yo'liga chuqur nazar solgan O'zbekiston Qahramoni, qalami o'tkir adabiyotshunos Ozod ShARAFIDDINOV Zulfiyaxonim haqida quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin men bugun boshqa bir savolga javob izlayapman – Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil nimadir? Menimcha. Bu – uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlar, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida. Iste'dod ulug' ne'mat, lekin iste'dodning o'zi bilan ish bitmaydi, shekilli. Ming afsuski, bizda ayrim iste'dodli shoirlar va shioralar bor, biroq ular o'zlarining iste'dodlariga berilib ketadilar-u, shunga yarasha inson sifatida ham ulug' bo'lish kerakligini unutib yuboradilar. Ular vijdonlariga xilof ish qilishdan ham, o'zlari ulug'lagan qadriyatlarini ikki chaqqacha sotib yuborishga yoki aroqqa qo'shib ichib yuborishga tayyor. Bunaqa odamning ijodi biron-bir tiyinli qimmatga yoxud salmoqqa ega bo'lmasligi o'z-o'zidan ayon. Zulfiya opaning ibrati shundan dalolat beradiki, har qanday iste'dodning yoniga insoniy fazilatlar qo'shilsagina, ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo'yi davom etadigan mashaqqatli mehnat bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi. Zulfiyaning oilaviy hayoti, muhabbati tarixi ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Zulfiya shoir Hamid Olimjonni sevib, u bilan 1935 yilda turmush qurdi. Biroq oradan to'qqiz yil o'tgach, nogahoniy falokat tufayli ikkita farzand bilan eridan beva qoldi. Keyin esa umrining oxirigacha Zulfiya Hamid Olimjonga muhabbatini boshi ustiga qo'yib, avaylab, asrab, gard yuqtirmay olib o'tdi. Ba'zan Zulfiya to'g'risida ikki bolani otasiz katta qildi deyishadi. Menimcha, bu unchalik to'g'ri emas, chunki Hamid Olimjon ruhan o'z xonadonini biron kun ham tark etgan emas, devorlardagi suvratlardan Hamid Olimjon yirik-yirik ko'zlari bilan muttasil Zulfiyaga, farzandlariga qarab, ularning holidan xabar olib turardi, javondagi kitoblardan uning salobatli ovozi eshitilib turadi. Otaning ruhi tirik bo'lsa, u oilaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok etaverar ekan". Darhaqiqat, Ozod sharafiddinov quyidagi fikrlar bilan Zulfiyaxonimning xalq orasidagi hurmatga sazovor jihatlarini va ulug'ligi sababini yaqqol ochib bera olganlar. Haqiqatdan ham inson so'zi va amali bir bo'lsagina yuqori insoniy fazilatlariga ega inson sifatida zamondoshlari va kelgusi avlodlar yodida butun umr yashashda davom etadi.

Zulfiya sevgi, sadoqat, hijron, ona, vatan, tong, tinchlik, dunyo, hurriyat, hayot, umr, yurtdoshlari va taqdiridoshlari jasorati, shodligi, iztiroblari, fojeasi, irodasi haqida ham qalam yuritdi, yuritganda ham ularni o'z shaxsiy nuqtai nazari bilan, shaxsiy dardu tashvishi tarzida talqin qildi.

Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo`lib yaraladilar. Bu baxt avvalo o`zbekniki, O`zbekistonniki, so`ngra esa dunyoniki. Zero atoqli shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek Zulfiya bizning ya`ni o`zbek xalqining o`chmas chirog`I, o`zbek onalari va qizlarining mardonavor timsoli. Har bir o`zbek qizining qalbidan joy topa olgan, haqiqiy qattiyat va matonat, vafodorlik va sadoqat kuychisidir.

Vataniga, ona yeriga bo`lgan muhabbati - vatanparvarlikning oliy tuyg`usi bo`lib, harbiy janglarning saodatli yakuniga ishonch bilan birlashadi - bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o`ylargina emas, balki o`zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe`l-atvor qirralari bo`lib, shoiraning she`rlarida yorqin ifodalanadi.

Shoira Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo`lsa ham: “Axir, baxt ona diyoridaгина tirikdir”.

Zulfiya Isroilova o`z davrining buyuk shoirlari nazdida shunday e`tirof qilingan.

ERKIN VOHIDOV, O`zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri: «Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she`riyat uchun quvonch bo`ladi». Bu so`zlar bus-butun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. ;

ABDULLA ORIPOV, O`zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri: “Zulfiya opadek ajoyib inson bilan hamyurt ekanligingdan faxrlanib ketasan kishi.”

Xulosa o`rnida shuni aytishim mumkinki o`zbek adabiyotining, she`riyatining eng zalvorli va xalqning qalbidan chuqur joy topa olgan shoirlaridan biri bu Zulfiyaxonim hisoblanadi. Zulfiya Isroilova nafaqat she`riyatning onasi balki tom ma`noda har bir o`zbek qizlarining ham onasi hisoblanadi. Sadoqat, vafo va oliyjanoblik, samimiylik Zulfiyaxonimning har bir satr she`rlarida o`z ifodasini topgan.

References:

1. Umurova G. (2014). Shoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. -Toshkent, “Navro`z”
2. Zulfiya. Adabiy o`ylar. -Toshkent: “Fan”, 1985 yil.
3. Ozod Sharafiddinov. Sizni sog`indim, Zulfiya opa! -Ijodni anglash baxti. -Toshkent., Sharq, 2004 yil.
4. Zulfiya. Saylanma. -Toshkent. Sharq, 2006 yil.